BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

Ta’lim tizimida inson kapitali shakllantirishga xizmat qiluvchi rahbar va o‘qituvchi munosabatlariuning xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi,
Farg‘ona akademik litseyi oqituvchisi
Normatova Zamira Aminjonovna
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23883131

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitalini yuzaga chiqishida asosiy rol o‘ynaydigan ta’lim sub’ektlari, ularning faoliyatidagi hamkorlik, ta’lim samaradorligiga erishish, ta’lim resurslarini muvofiqlashtirish va boshqarish, ta’lim tizimidagi muammolar va uning ijtimoiy pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash texniksi va strategiyalari xususida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: ta’lim muassasa, inson kapitali, pedagog, konflikt, ta’limni boshqarish, rahbar, shaxsiy kamolot, individual yuksak ma’naviyat, boshqaruv strategiyasi, shaxsning ijtimoiy holati, ma’naviy-axloqiy barkamollik.

Аннотация: В данной статье говорится об образовательных субъектах, которые играют главную роль в возникновении человеческого капитала, сотрудничестве в их деятельности, достижении образовательной эффективности, координации и управлении образовательными ресурсами, проблемах в системе образования, а также методах и стратегиях их выявления. ее социально-педагогические-психологические аспекты.
Ключевые слова: образовательное учреждение, человеческий капитал, педагог, конфликт, образовательный менеджмент, лидер, развитие личности, высокая духовность личности, стратегия управления, социальный статус личности, духовно-нравственная зрелость.

Abstract: This article talks about the educational subjects that play the main role in the emergence of human capital, cooperation in their activities, achieving educational efficiency, coordinating and managing educational resources, the problems in the educational system, and the techniques and strategies for identifying its socio-pedagogical-psychological aspects.
Key words: educational institution, human capital, pedagogue, conflict, educational management, leader, personal development, individual high spirituality, management strategy, social status of a person, spiritual and moral maturity.

Ta’lim muassasaning faoliyatidagi samaradorlik, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog‘liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a’zolarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Rahbarlik faoliyati yuqori taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida e’tirof etiladi. Bunda, bir tomondan, strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, ikkinchi tomondan, bu tizimning o‘zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar va shu qatorda professional faoliyat boshqaruv sub’ektining rivojlanishi, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv jarayonida, rahbarning xodimlarga nisbatan ta’sir ko‘rsatishi va ko‘zlangan maqsadga erishishga ularni undashida o‘zaro munosabatlar yoki ikki tomon o‘rtasida yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar quyidagilarga asosan aniqlanadi: qarorlar qabul qilish jarayonida

xodimlarning ishtirok etish darajasi; qarorlarda adolat ustuvorligi va bag‘ri kenglik; xodimlarning kasbiy va faoliyatga oid axborot bilan ta’minlanishi; rahbar tomonidan qo‘llanilayotgan ish uslubi; rahbarning kreativligi va masalani hal qilishda ijodkorlik hamda qat’iyatligi.

Pedagogik faoliyatda rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar hisoblanadi: rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish.

Rejalashtirish – boshqaruv faoliyatining boshlanishi va asosi bo‘lib, tayyor rejalar qachon va kim tomonidan bajarilishi e’tiborga olingan hoda, hozirgi sharoitlarni tahlil qilish va kelajakka real vazifalarni qo‘yishni nazarda tutsa, tashkillashtirish esa, tizimni yuzaga keltirish bo‘lib, bunda intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda birbiriga bog‘langan komponentlar e’tiborga olinadi. Shuningdek, nazorat jarayoni, ish faoliyatini tartibga keltirish, tasniflash, hodisalarni oldindan belgilangan shakli bo‘yicha baholash omillarini o‘z ichiga oladi.

Rahbarlikda ba’zida o‘z e’tiborini faqat vazifalarga, ishga qaratgan yoki faqat xodimlarga qaratgan rahbarni ko‘rish mumkin. Albatta, bunday ko‘rinishdagi rahbarlarning ikkalasi ham jiddiy kamchiliklarga ega, deb baholanadi.

Ta’kidlash lozimki, rahbarlik boshqaruv madaniyati, boshqaruv ma’naviyati tushunchalarini bilan tasniflanadi. Boshqaruv madaniyati – boshqaruv va rahbarlik sohasidagi muayyan maqsadga erishish yo‘lida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmui. Boshqaruv madaniyati xodimlar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshirish hisoblanadi. Boshqaruv ma’naviyati – ma’naviyat tamoyillarining boshqaruv sohasida namoyon bo‘lishi, rahbarga xos ma’naviy fazilatlar, jamiyat va davlat hayoti, barcha sohalardagi boshqaruvning ma’naviyat talablariga mos bo‘lishini anglatuvchi tushuncha. Boshqaruv uslublari Abu Nasr Farobiyning «Aql to‘g‘risida»gi risolasi, Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari, Alisher Navoiy asarlarida fundamental ilmiy tushunchalar bilan yoritilgan. Abu Nasr Farobiyning «Aql to‘g‘risida»gi risolasida rahbarlikka xos bo‘lgan quyidagi ayrim fikrlar bayon etilgan. Aqlli deb, shunday kishiga aytamizki, unda o‘tkir zehn-idrok bo‘lishi bilan birga, fazilati ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Ular fazilatli, o‘tkir muhokamali, yaxshi, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega. Yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yurituvchi, deb atash mumkin. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur o‘zining «Temur tuzuklari»da mansabdor shaxsning o‘z mansabini suiiste’mol qilishi, adolatsizligi, yolg‘onchiligi, ikkiyuzlamachiligi, o‘z so‘zining uddasidan chiqmasligini qattiq qoralagan, «Kuch – adolatda» g‘oyasini ilgari surgan.

Boshqaruvchining shaxsiyati uning fazilati va obro‘-e’tibori hisoblanadi. Maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasasi direktorining muhim fazilati uning yaxshi o‘qituvchi va metodist bo‘lishidadir. Maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasasi direktori ish faoliyatida o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasining dilkash murabbiysi bo‘lishi kerak. Direktorlik fazilati va iste’dodini hech bir oliy ta’lim muassasasi tarbiyalamaydi. Uni hayotning o‘zi tabiat va jamiyatni kuzatish nuqtai nazaridan shakllantiradi.

Boshqaruvchi odobining o‘ziga xos qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

kasbini va bolalarni sevish; o‘zi dars beradigan fan, uni o‘qitish nazariyasi va metodikasi, pedagogika, psixologiya va mafkuraga doir chuqur bilim, yuksak ma’naviy madaniyatga ega bo‘lish; shaxsning axloqiy pokligi; pedagogik takt, muomala odobi qoidalariga ega bo‘lish; hamma o‘quvchilarga nisbatan xolis niyatli, ob’ektiv, talabchan, adolatli bo‘lish; pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri bilan pedagogik ijodkorlikning uyg‘unligi.

Hozirgi zamonda rahbarning fazilati asosan uning dadilligi, tashabbuskorligi, bilimdonligi, halol va va'dasiga vafodorligidan ma'lum bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi direktorlar haqiqiy fazilat va xususiyatlarga ega bo'lishi uchun quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim: keng siyosiy bilim, innatvator va kreativ qobiliyat, yuksak pedagogik mahorat, jamoa ishlarini bajara oladigan va o'z qo'l ostidagilar bilan yaxshi muomalada bo'la olishi kompetentligi, ta'lim sub'ektlari bilan konstruktiv muloqot qila olish qobiliyati keng dunyoqarash, ilmiy-metodik bilim, muassasaning hamma sohalarini keng o'rgangan, ishga vijdonan munosabatda bo'lishi, xo'jalik masalalarini to'g'ri hal qila olishi kerak.

Ta'limni isloh qilmay turib, jamiyatni isloh qilib bo'lmaydi. Ta'limining mazmuni, o'quv rejasi, dastur va standartlarni modernizatsiya qilish, yangilab borilishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ta'lim mazmunining yangilanishi uning boshqaruvini ham tashkillashtirib borishni taqozo etadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va global axborot oqimining ko'pligi rahbardan juda katta mas'uliyat talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, rahbarlik vazifasi mezonlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy yetuklik, davlat va ta'lim siyosatini to'g'ri tushunish va talqin qilish;

-ikkinchidan, yo'naltirish qobiliyati yaxshi shakllangan. Bunda pedagogik va o'quvchilar jamoasini jamiyat g'oyasi va tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishga yo'naltirish;

-uchinchidan, vazifa va topshiriqlarni qo'yish kompetentligiga ega bo'lishi. Bunda, ta'limga oida qonun va rasmiy hujjatlar asosida pedagog va o'quvchilar jamoasi oldiga shaxs va jamoani tarbiyalash bo'yicha vazifa qo'yish;

-to'rtinchidan, o'z ustida domiy ishlash va kasbiy rivojlanish hamda o'rganish. Bunda, pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun aniq maqsad qo'yish va kerakli metodik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda xorij tajribalarini mutazam o'rganish.

-beshinchidan, pedagogik va rahbariy yordam berish. Bunda, jamoada mehnat faoliyati va ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va faollashtirish pedagogik, psixologik jihatdan amaliy yordamni ko'rsatish va rag'batlantirib borish hamdamoddiy-ma'naviy motivatsiya berish.

-oltinchian, pedagogik qo'llab-quvvatlash. Bunda, pedagogik va o'quvchilar jamoasi, o'qituvchi va o'quvchilar tashabbusi va hoyalarini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish va zaruriy amaliy yordamni ko'rsatish. Shuningdek, jamoaga o'z imkoniyatlarini to'liq ishlatishi uchun kerakli amaliy-uslubiy maslahatlar berish.

-yettinchidan, pedagogik faoliyatni muntazam kuzatish. Pedagogik jamoa saviyasi, uyushqoqlik, ffaoliyat muvofiqligi, axloqiy va madaniy-ma'rifiy o'sish, pedagoglarning kasbiy va shaxsiy takomillashishni kuzatish va o'rganish. Shuningdek, jamoaning ishga bo'lgan va o'zaro munosabatlari, jamoa a'zolarining mehnat faoliyatlarini ijobiy-salbiy tomonlarini tartibga solish.

-sakkizinchidan, zaruruiy ko'rsatma berish. Jamoaga mehnat faoliyatlarini tashkil etishida kerakli ko'rsatma berish, pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar faoliya natijalarini muntazam nazorat qilib borish hamda boshqarish va muvofiqlashtirib borish.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ta'lim muassasasi ichki boshqaruvi tizimida pedagoglar jamoasini va uning ayrim a'zolarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Moddiy-ma'naviy rag'batlantirish tizimlari ongliintizomli o'quvchilarning tarbiyalanishiga turtki bo'ladi.

Rahbar o'z ish faoliyatini amalga oshirishida boshqaruvda monitoring tizimini amalga oshirishi samarali natija beradi. Pedagogik faoliyatni kuzatish, axborot to'plash, saqlash, qayta ishlash uning ahvoli, taraqqiyoti istiqbolini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova G.K. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. – T:.- nashiriyoti, 2020. b.
2. Кораблева Г.Б. Об институциональном подходе к исследованию связи профессии и образования // Социс. 2000. №6.
3. Корчагин, Ю.А. Человеческий капитал, сущность, развитие, роль в эконо-мике [Электронный ресурс] / Ю.А. Корчагин. – Режим доступа: http://www. lerc.ru/?part=articles&art=3&page=16 (дата обращения: 21.10.2016).
4. Краковская, И.Н. Человеческий капитал организации как фактор ее ин-новационного развития: управление по стадиям жизненного цикла [Электронный ресурс] / И.Н. Краковская // Креативная экономика. – 2011. – № 1. – Режим доступа: http://cyberleninka.ru/article/n/chelovechesky-kapital-organizatsii-kak-faktor-ee-innovationnogo-razvitiya-upravlenie-po-stadiyam-zhiznennogo-tsikla (дата обращение: 05.11.16).
5. Махимов А.С. «Актуальные проблемы РК в области образования» // 2010-2013 Ассоциация «Евразийский экономический клуб ученых» Разработано в kaznetmedia 30.04.2013 г.
6. Махлуп, Ф. Производство и распространение знаний в США [Текст]/ Ф. Мах-луп. – М. : Прогресс, 1966. – 462 с.
7. Пугачева Е.Г., Соловьенко К.Н. Высшая школа: некоторые проблемы самоорганизации // Социс. 1999. №11.
8. Тённис, Ф. Общность и общество : Основные понятия чистой социологии [Текст] / Ф. Тённис. – СПб. : Владимир Даль, 2002. – 386 с.
9. Шкатулла В.И. Образовательное право: Учебник для вузов. - М., 2001. - С. 118-121.
10. Эшнаев Н.Ж. Проблемы качества и эффективности и перспективы профессионального образования практического психолога // Научный обозреватель. Научно-аналитический журнал, 2021.№ 11 (131), -С. 22-25.
11. Эшнаев Н.Ж., Норматова З.А. Содержание управленческих функций руководителей образовательных учреждений // Интеграция науки, образования и практики. 2021. №2, Изд.: 2181-1776.